

Yangi Konstitutsiya - rivojlanish va barqarorlik kafolati

Ismatov Shamshod Farxod o`g`li

*O`zbekiston davlat san`at va madaniyat instituti
“Kino, televideniye va radio san`ati” fakulteti
“Kino va televideniye rejissyorligi” ta`lim yo`nalishi
2-bosqich (rus g.) talabasi
e-mail: ismatovofficial@mail.ru*

The new Constitution is a guarantee of development and stability

Ismatov Shamshod Farkhodovich

*the 2st year student of direction “Film and TV Directing”
faculty “Art of Film, TV and Radio”
State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan,
e-mail: ismatovofficial@mail.ru*

ANNOTATSIYA

Konstitutsiyaviy tizimdagi zamonaviy o`zgarishlar jamiyat taraqqiyoti va fuqarolar huquqlarini himoya qilishga qanday hissa qo`shayotgani haqida fikr yuritiladi. Yangi konstitutsiyaning asosiy jihatlari ko`rib chiqilib, ularning ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyotga ta`siri yoritiladi.

ANNOTATION

It is discussed how modern changes in the constitutional system contribute to the development of society and the protection of citizens' rights. The main aspects of the new constitution are considered, and their impact on social development and progress is highlighted.

KALIT SO`ZLAR

Konstitutsiya, tizim, davlat, ijtimoiy rivojlanish, huquq, yangi, fuqaro, o`zgarishlar, jamiyat.

KEY WORDS

Constitution, system, state, social development, law, new, citizen, changes, society

Konstitutsiya mamlakatimizning asosiy qonuni bo`lib, u davlat tuzilishini, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi, shuningdek siyosiy tizimning ishlashi uchun asos yaratadi. Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o`tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi unda xalqimizning Yangi O`zbekistonni barpo etish bo`yicha orzu-umidlari va intilishlari o`z aksini topganligidan dalolat bermoqda. Yangi Konstitutsiya jamiyatimiz oldida turgan zamonaviy tendentsiyalar va qiyinchiliklarni aks ettiradi. U barcha aholi qatlamlari manfaatlarini hisobga olib, tenglik va ijtimoiy adolatni ta`minlashga qaratilgan.

Zamonaviy dunyoda konstitutsiyaviy tizimdagi o`zgarishlar tez rivojlanayotgan jamiyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Vaqt o`tishi bilan bizning jamiyatimiz hayotimiz barcha sohalariga ta`sir ko`rsatadigan muhim o`zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bu ko`plab omillar, jumladan, siyosiy tizimlarni modernizatsiya qilish zarurati bilan bog`liq. Shu nuqtai nazardan, yangi Konstitutsiya jamiyat va davlat taraqqiyotida barqarorlik va taraqqiyotni ta`minlashga qodir bo`lgan asosiy vositalardan biridir.

«Huquqiy davlat — demokratik tamoyillar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo`lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlatdir. Shu ma`noda, men “O`zbekiston — huquqiy davlat” degan g`oyani Konstitutsiyamizda aniq mustahkamlab qo`yishni taklif etaman»¹, — dedi o`z ma`ruzasida Shavkat Mirziyoyev respublika Konstitutsiyaviy komissiyasi a`zolari bilan uchrashuvida. Davlat raxbari ushbu chiqishida jami besh ming olti yuz yetmish to`rtta so`zlardan foydalandi va ularning ichida eng ko`p ishlatilgan so`zlaraga: «**Konstitutsiya**» – 106 marta, «**Davlat**» – 75 marta, «**Inson**» – 54 marta, «**Huquq**» – 42 marta ishlatilgan bo`lsa, «**Fuqaro**», «**Qonun**», «**Taklif**», «**Yangi**», «**Hayot**» kabi so`zlari esa 30 martadan ko`proq ishlatilgan. «**Jamiyat**», «**Mustahkam**», «**Islohotot**», «**Oila**», «**O`zbekiston**», «**Erkin**», «**Ijtimoiy**», «**Norma**», «**Shaxslar**» ga oid so`zlar 20 martadan ko`proq ishlatilgan. Ushbu ma`ruza Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi mutaxassisleri tomonidan tahlil qilindi.

Prezidentimiz ma`ruzalarida ishlatilgan so`zlariga e`tibor qaratar ekanmiz, bugungi kundagi islohotlarining asosiy tamoyili bo`lmish «Inson-Jamiyat-Davlat» degan yondashuviga ko`proq urg`u berilganiga guvoh bo`lishimiz mumkin.²

¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning respublika Konstitutsiyaviy komissiyasi a`zolari bilan uchrashuvidan

² Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi; Shavkat Mirziyoyevning respublika Konstitutsiyaviy komissiyasi a`zolari bilan uchrashuvi

Ma'lumot o'rnida qayd etish joizki, yangi konstitutsiyaning asosiy jihatlaridan biri bu fuqarolarning farovonligini ta'minlashda davlatning rolini mustahkamlashdir. Bunga ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va jamiyatning boshqa sohalarini qo'llab-quvvatlash kiradi.

Yangi Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari yangi konstitutsiyamiz o'zaro tenglik va erkinlikni ta'minlash, ijtimoiy barqarorlikni saqlash, ijod va innovatsiyalar uchun sharoit yaratishda muhim rol o'ynaydi; jamiyatimiz oldida turgan zamonaviy tendentsiyalar va qiyinchiliklarni aks ettiradi. U barcha aholi qatlamlari manfaatlarini hisobga olib, tenglik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan. Fuqarolarning farovonligini ta'minlashda davlatning rolini kuchaytirish, huquq va erkinliklarni kafolatlash, shuningdek, fuqarolik jamiyati rivojlanishini rag'batlantirish - bularning barchasi demokratik va progressiv jamiyatni shakllantirishga yordam beradi, bunda har kim o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish va siyosiy hayotda ishtirok etish imkoniyatiga ega.

Litvaning "Obzor.lv" portalida "O'zbekiston Prezidenti konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha referendum o'tkazishni taklif qildi" nomli maqolasi chop etildi. Nashrning yozishicha, Shavkat Mirziyoyev mamlakat konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha umumxalq referendumini o'tkazishni taklif qilgan. "O'ylaymanki, agar biz fuqarolarimizning fikri va qo'llab-quvvatlashiga tayangan holda, referendum yo'li bilan konstitutsiyaviy islohotni amalga oshirsak, bu xalqimizning irodasi – haqiqiy xalq konstitutsiyasi bo'ladi", — deya keltiradi Obzor.lv O'zbekiston rahbarining so'zlariga ko'ra. Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan respublikaning asosiy qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar shakllantirish bo'yicha yig'ilish.³

Maqolada ta'kidlanganidek, amaldagi qonunchilikka ko'ra, parlament mustaqil ravishda konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritishi mumkin. "Biroq, O'zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek, referendum o'tkazish mamlakat bosh hujjatining yagona manbasi va muallifi oddiy fuqarolar ekanligi tamoyiliga mos keladi", — yoziladi nashrda. "Jumladan, yangi konstitutsiya o'lim jazosini taqiqlashni nazarda tutadi va hujjat fuqarolarning shaxsiy daxlsizlik huquqlarini ham mustahkamlaydi". Obzor - Litvaning mashhur bosma va elektron yangiliklar gazetasi. Siyosat, iqtisod, xalqaro munosabatlar, biznes, sport, moliya, madaniyat va turizm olamidagi eng muhim voqealarni aks ettiradi. Yangiliklar, tahliliy maqolalar, tadqiqotlar, ekspert xulosalari va baholashlarini nashr etadi. Portal auditoriyasi oyiga 330 ming kishiga etadi.

³ Litvaning "obzor.lt" nomli jurnalidan, 20 iyun 2022 yil

Bu soʻzlardan keyin aytishim lozimki, yangi konstitutsiya davlatimiz va jamiyatimizni yanada rivojlantirish va mustahkamlash uchun asos boʻlib xizmat qiladi va biz uning salohiyatidan toʻliq foydalanishimiz kerak. Faqat shu yoʻl bilan biz yangi marralarni zabt eta olamiz va kelgusi yillar davomida mamlakatimizning barqaror va progressiv rivojlanishini taʼminlay olamiz.

Xulosa qilib aytganda, yangi Konstitutsiya, agar u adolatli, tenglik tamoyillari va oʻzgaruvchan dunyoga moslashish qobiliyati bilan yaratilgan boʻlsa, demak ijtimoiy taraqqiyot uchun kuchli poydevor boʻlishi mumkin. Biroq, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish qoʻllab-quvvatlashni, fuqarolarni mamlakatning asosiy qonun hujjatini shakllantirish va oʻzgartirish jarayoniga jalb qilishni talab qiladi.

ADABIYOTLAT ROʻYXATI

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; yangi tahrir, 2023-yil 30-aprel
- <https://president.uz/ru/lists/view/6275>; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
- Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro hokimiyati organlari rahbarlari, jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvidan; Toshkent sh., 8.05.2023 y.
- <https://obzor.lt/news/n81912.html>; Litvaning Obzor gazetasini rus tilidagi yangiliklari. 20.06.2022y.
- <http://www.lex.uz/uz/docs/-6461609>; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi davlat muassasasi. Toshkent sh., 2023-yil 8-may, PF-67-son